



SHARTNOMA № 85

«05» январь 2022 yil

№ 139/031 o 2.02 2022

Qarshi shahri

“Qashqadaryo Eko trans” MChJ bundan buyon matnda “Xizmat ko'rsatuvchi” deb ataluvchi nomidan, o'z Nizomi asosida faoliyat yurituvchi rahbari X.R.Nurqulov bir tomondan, “Shurtan GKM” MChJ, bundan buyon matnda “Buyurtmachi” deb ataluvchi nomidan, Nizomi asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor Sh.Ch.Aslanov ikkinchi tomondan ushbu shartnomani, quyidagi maqsadlarda tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAZMUNI

- 1.1. Mazkur shartnomaga binoan “Xizmat ko'rsatuvchi” bilan “Buyurtmachi” o'rtasida qattiq maishiy chiqindilarni (keyingi o'rinlarda - QMCh) joylashtirish va zararsizlantirish xizmatlari bo'yicha to'g'ridan - to'g'ri xo'jalik aloqa o'rnatiladi. “Buyurtmachi”, “Xizmat ko'rsatuvchi”ga shartnomada ko'rsatilgan xaq evaziga Qarshi shahar hududida joylashgan ob'ekt (Qarshitermoplast sexi, Geolog MSSM va Erkatoy-3 MTM)larida hosil bo'lgan qattiq maishiy chiqindilarni joylashtirish va zararsizlantirish uchun olib borib topshiradi.
- 1.2. QMChning bir yillik hosil bo'lish miqdori 521,1 m3 ni tashkil etadi.

2. KO'RSATILGAN XIZMATLAR UCHUN HISOB-KITOB QILISH

- 2.1. Ushbu shartnomani imzolash paytidagi amaldagi narx har bir m3 QMCh uchun QQS bilan 27 992.4 (yigirma yetti ming to'qqiz yuz to'qson ikki ming 4 tiyin) so'mni tashkil etadi.
- 2.2. Shartnoma bo'yicha bir yillik xizmat ko'rsatishning umumiy narxi 14 586 839.64 (o'n to'rt million besh yuz sakson olti ming sakkiz yuz o'ttiz to'qqiz so'm 64 tiyin) co'mni tashkil etadi.
Qattiq maishiy chiqindilarni joylashtirish va zararsizlantirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarida o'zgarish bo'lgan taqdirda “Xizmat ko'rsatuvchi” kamida 15 kun oldin “Buyurtmachi”ga yozma ravishda ma'lum qiladi.
- 2.3. “Buyurtmachi” qattiq maishiy chiqindilarni joylashtirish va zararsizlantirish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun amalda ko'rsatilgan xizmatlar asosida, har chorak yakunida tasdiqlangan dalolatnomalar asosida to'lovni amalga oshiradi.
- 2.4. Qattiq maishiy chiqindilarni joylashtirish va zararsizlantirish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovni hisoblash, tegishli davrlarda amalda bo'lgan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.
- 2.5. Yuridik manzil, bank rekvizitlari, korxonalar nomlari yoki QMCh hajmi o'zgargan taqdirda tomonlar bir-birini 10 (o'n) kun oldin yozma ravishda ogohlantirish kerak.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 3.1. “Xizmat ko'rsatuvchi” quyidagi huquqlarga ega:
“Buyurtmachi” tomonidan shartnoma shartlarini bajarilmaganligi uchun jarima yoki penya (neustoyka) to'lanishini qonun doirasida talab qilish;
“Xizmat ko'rsatuvchi” qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ-huquqiy dalolatnomalarga va boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- 3.2. “Xizmat ko'rsatuvchi” quyidagilarga majbur:
 - belgilangan muddatlarda QMCh larni joylashtirishni va zararsizlantirishni amalga oshirish;
 - mavjud qonunchilik va qoidalar hamda mazkur shartnomada belgilangan shartlarga muvofiq “Buyurtmachi” olib borib bergan QMCh larni joylashtirish va zararsizlantirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
 - QMCh larni joylashtirish va zararsizlantirish xizmatlari uchun elektron to'lov tizimini tadbqiq etish va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalar (litsevoy) holatini kuzatib borish;
 - QMCh larni joylashtirish va zararsizlantirish xizmatlarining amalga oshiriladigan rejimi va sifati bo'yicha “Buyurtmachi” murojaatlari (arizalari, takliflari, shikoyatlari), shuningdek ularning ijrosi hisobini olib borish;
 - joylashtirish va zararsizlantirish uchun topshirilgan chiqindilar hisobini olib borish;
 - “Buyurtmachi”ga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha kamchiliklarga yul quymaslik va ularni bartaraf etish choralarini qo'llash;
 - QMCh larni joylashtirish va zararsizlantirish xizmatlari uchun to'lovlar hisob-kitob holati, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha qarzdorligi yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomalarni, solishtirma-dalolatnomalarni zarur hollarda “Buyurtmachi”ga bepul taqdim etish;
- 3.3. “Buyurtmachi” quyidagi huquqlarga ega;
 - “Xizmat ko'rsatuvchi” tomonidan shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan hollarda yozma yoki telefon orqali ogohlantirish (shikoyat) berish. “Xizmat ko'rsatuvchi” tomonidan xizmatlar to'liq ko'rsatilmagan taqdirda dalolatnoma tuzishni, shuningdek aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bartaraf etilishini talab qilish;
 - Shartnomada ko'rsatilgan ob'ektlar o'z ish faoliyatini vaqtincha to'xtatishi hisobiga qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lmagan taqdirda joylashtirish va zararsizlantirish xizmatlari uchun haq to'lash majburiyatlaridan to'liq yoki qisman ozod qilinishi.
- 3.4. “Buyurtmachi” quyidagilarga majbur:
 - Xizmatlar uchun shartnoma tuzish va uning talablarini bajarish;
 - Bajarilgan ishning hajmini “Xizmat ko'rsatuvchi” hujjatlarida “Buyurtmachi” vakilining imzosi va korxonalar muhri bilan tasdiqlab borish;
 - Har chorakning boshida “Xizmat ko'rsatuvchi” taqdim etgan o'tgan chorakda amalda bajarilgan ish hajmini ko'rsatuvchi hisob dalolatnomasini rasmiy lashtirish.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 4.1. “Buyurtmachi” quyidagilarga javobgar:



- QMCh ni joylashtirish va zararsizlantirish xizmatiga o'z vaqtida to'lov to'lamaganligi uchun.
- 4.2. "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilgan har bir kuni uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 10% dan oshmagan miqdorida penya to'laydi.
- 4.3. "Xizmat ko'rsatuvchi" quyidagilarga javobgar:
 - ko'rsatilayotgan xizmatlarning muddatlari va kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari buzilganligi aniqlangan xollarda;
 - ko'rsatilayotgan xizmatlarning muddatlari va kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'z vaqtida chora ko'rishlikni ta'minlashga.

5. SHARTNOMANING KORRUPSIYAGA QARSHI QISMI

- 5.1. Jinoyatchilikdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan korruptsiyaga va ushbu huquqbuzarlikka qarshi kurashish qonun hujjatlariga ko'ra davlat organi xodimining pora olishi, tijoratda pora olish yoki pora berishda ishtirok etish kabi harakatlarni rad etish, shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida tomonlar amaldagi korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etadilar, shu jumladan xodimlar, yoki ushbu qonunga zid ravishda harakat qilmasligini ta'minlaydilar;
- 5.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo'lgan maqsadlarda ularga ta'sir o'tkazuvchi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxs orqali takliflar, pul va boshqa qimmatbaho buyumlar, mol-mulk huquqi yoki boshqa moddiy yoki nomoddiy foydalarni olishda, asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishishda rozilik berishdan voz kechadilar;
- 5.3. Agar tomonlardan biri ushbu bob talablarini bajarmagan bo'lsa, boshqa tomon ushbu Bitimni bir tomonlama bekor qilish, shuningdek uning bajarilishini to'xtatib turish huquqiga ega.
- 5.4. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilish, yetkazilgan zararni qoplash ushbu Shartnomaning tegishli moddasida belgilangan tartibda amalga oshiradi, shu bilan birga ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon Shartnomani bir tomonlama bekor qilish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas.
- 5.5. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish choralarini ko'rishni kafolatlaydilar. Agar kelishuv bo'yicha tomon Kompaniya xodimlarining hatti-harakatlariga, ushbu shartnomaga va/yoki amaldagi qonunchilikka, shu jumladan korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga majburlash faktlariga duch kelsa, tomonlar bu haqda korruptsiyaga qarshi qoidalarga zid bo'lganligi to'g'risida quyidagi aloqa kanallaridan biri tomonidan xabar berishi shart.
 - +99875 552-42-54 raqamli "Ishonch telefoniga" og'zaki murojaat qilish;
 - Jamiyatning rasmiy veb-sayti orqali sgcc.uz;
 - Jamiyatning pochta manziliga yuborilgan yozma murojaat orqali.

6. SHARTNOMA MUDDATI

- 6.1. Shartnomaning amal qilish muddati "31" dekabr 2022 yilgacha belgilanadi.
- 6.2. Ushbu shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tomonlarning o'zaro roziligi bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida amalga oshiriladi.
- 6.3. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilmoqchi bo'lgan tomon ikkinchi tomonni bu haqida bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirmasa, shartnoma amal qilish muddatiga qadar o'z kuchini yo'qotmagan hisoblanadi.
- 6.4. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 7.1. Tomonlar orasida kelib chiqqan barcha kelishmovchilik va tortishuvlar muzokoralar yo'li bilan hal etiladi. Tomonlar o'zaro kelisholmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasida belgilangan qonunchilikka binoan Iqtisodiy sud orqali hal etiladi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI:

"Xizmat ko'rsatuvchi"	"Buyurtmachi"
"Qashqadaryo Eko trans" MChJ	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ
Yuridik manzili: Qarshi shahar Samarqand yo'li, 2 km	Yuridik manzili: G'uzor tumani Sho'rtan qo'rg'oni
e-mail: qash_ekotrans@mail.ru ; tel: 226-44-15	e-mail: sgcc@sgcc.uz ; tel: 75-552-42-54
Hisob raqami: 20208000000752913001	Hisob raqami: 20210000104039001001
Bank: TIF «Milliy bank» Qarshi filiali	Bank: TIF «Milliy bank» Qarshi filiali
MFO: 00150	MFO: 00150
STIR: 304784762	STIR: 203195074
Direktor "QASHQADARYO EKO-TRANS" S. Betalov	Bosh direktor Sh.Ch. Aslanov




 Alex Borovov